

SABR VA NAFS JANGI**Kamol Hakimov***A. Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universiteti tadqiqotchisi***ARTICLE INFO.****Kalit so'zlar:**

Qur'oni karim", tush, hiyla, Misr, karvon, qullik, shohlik, ayol makri, tavba, xilqat, payg'ambarlar.

Annotatsiya

Maqolada insoniy va shaytoniy xarakter ortasidagi kurash, makr, tuhmat, sabr, hilm, hasad, kibr kabi mavzular tilga olinadi. Inson o'z istagiga erishish yo'lidagi tubanligi hamda Alloh ko'magi ila nafsoniy xohishlardan ustun kelishi Yusuf a.s. va u kishining ayollari Zulayho misolida tasvirlanadi.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB.

Biz yashab turgan dunyo va jamiki maxluqot ikki qarama-qarshi qutb asosiga qurilgan. Alloh nuring oshkor bo'lishi uchun zulmatni, Odam qarshisida shaytonni, Ibrohim oldida Namrudni, Muso yonida Fir'avnni, Muhammad a.s. ro'parasida Abu Jahlni mavjud qilgani(J. Rumiy) fikrimizga dalildir.

Buyuk Kitobimiz "Qur'oni karim"ning 111 ta oyatdan iborat 12-surasi "Yusuf"- "go'zal qissa" deb nom olgan. Undagi "bosh obraz"lar Yusuf va Zulayholarning ishq qissalari yozma adabiyotda juda keng quloch yozgan.

Firdavsiy, Fuzuliy, Rabg'uziy, Durbek, Balxiy va Jomiyalar ushbu ruknda dostonlar yozishgan.

Yusuf a.s. Ya'qub a.s. ning 11-o'g'li. U zotning onalarining ismi Rohil va ukalarining ismi Binyamin edi. Kunlarning birida Yusuf a.s. tush ko'radi. Bu haqda "Qur'on" ning 4-oyatida "Eslang, Yusuf o'z otasiga dedi:" Ey otajon! Men tushimda o'n bitta yulduz, quyosh va oyning mena sajda qilgan hollarida ko'rdim". Ayni shu haqda "Tarixi anbiyo va hukamo" asarida qaydlar mavjud:"Yusuf a.s. tush ko'rib edikim, gunash-u oy va o'n bir kavkab onga sajda qildilar". 5-oyat: "Otasi aytди:" Ey o'g'ilcham! Tushingni birodarlaringga so'zlab bermagin. Aks holda senga qattiq makr qilishadi. Zero, shayton insonga aniq dushmandir".

Jomiyning "Yusuf va Zulayho" dostonida bu haqda shunday bayt keladi: "Tush aro xurshid ila oy, Ham o'n bir yulduz o'ldi jilva oroy. Hama oldimda ta'zim aylabon fosh, Qilurg'a sajda yerga qo'ydilar bosh".

Musulmon ulamolari tushni uch turga bo'ladilar:

- 1) ilhomiy tush- "Yusuf" surasidagi tushlar shu turga mansub bo'lib, u o'ngidan chiqadigan tush;
- 2) o'tgan voqealarni xotirlash oqibatida ko'rilgan tush;
- 3) shayton ta'siri ostida ko'rildigan alg'ov-dalg'ov tushlar.

Imom Nablusiyning "Tush ta'birlari" kitobida tushda "Yusuf" surasini yoki undan bir parcha o'qilganini ko'rish-do'stlarga qaraganda dushmanlarning ko'p bo'lishiga, faqirlilikdan boy bo'lishga, xorlikdan aziz bo'lishga ishora ekani aytildi. Demak, ushbu ta'bilda Yusuf a.s.ning o'z hayot yo'lli ham mujassam

ekanini ko'ramiz. Yusuf a. s. ga Mavlo taolo o'n karomat ato etdi: ko'rк, qiliq, kechurmak, yalavochlik, tush ta'biri,ko'ni so'z, uz, avoqibat, umur, ta'vili suhuf.(2) Uning chiroyiga o'gay akalarj hasad qilib, uni bir tashlandiq quduqqa tashlab ketishadi. Shu voqeadan Yusuf sarguzashtlari boshlanadi. Quduq yonidan o'tayotgan karvon uni ko'rib, tortib oladi va Misrga olib borib, hokimga sotadilar. Hokimning xotini Yusufni tarbiya qiladi. Yigit o'n sakkiz yoshga to'lganida malika unga oshiq bo'ladi. Bu malika Zulayho edi. Ushbu tasvir Jomiyning dostonida biroz boshqacha talqin etiladi, ya'ni Zulayho Yusufni tushida ko'radi: Jamole ko'rdikim, boshdan oyoq nur, Na monandi pari, na mislidur hur. Kanizlardan biri Zulayhoga tushiga dev kirganini aytadi. Shunda malika: "bilgil, dev ermas, ki, dev aslo hamul suratg'a kirmas", deydi. Zulayho ham parizod edi go'yo. Jomiy uning chiroyi haqida yetmishta baytda fa'rif keltiradi.(Misol tariqasida Navoiy " Mehr va Suhayl" dostonida Mehrning chiroyini 8 ta baytda chizganini keltirish kifoya qilsa kerak)

Jomiy o'z dostonida ayrim tarixiy faktlarga shaxsiy munosabat bildirib boradi.Jumladan,shoir fikricha,Yusufning akalari butkul yovuz insonlardan emas,ularni shayton avraganiga urg'u beradi.Akalardan biri:"Nohaq,vah,nechuk qon to'karmizkim,hama bo'lsoq musulmon".

"Nuran maxdum"(Navoiy ta'rif) ko'proq Zulayhoning ishq yo'lidagi xatti-harakatlariga e'tibor qaratadi.Zulayho Yusufni boshqa qullar bahosidan ikki chandon qimmatga sotib oladi.Va bu bilan Yusufga yetdim deb o'yaydi:"Xush ul kunkim,bo'lib tole' madadkor, Yetushgay yorining vasliga bir yor". Ammo bu quvonish o'tkinchi edi.Malika o'z istagiga yeta olmay qon yig'laydi,Yusufda esa u xohlagan ishga mayl yo'q edi: "Zulayhokim,edi shaydoi Yusuf, Ango chun bo'ljadi parvoyi Yusuf". Zulayho ba'zi ayollar gapiga kirib,Yusufni zindonga soldiradi,so'ngroq bu ishidan afsus qiladi.U Yusufning yo'liga-diniga kiradi,uyiga borib, butni sindiradi.Mana shu voqeа yechimdir.Keyingi voqealar ancha "silliqlashadi".

"Qisasi Rabg'uziy"da yozilishicha, kimki Yusuf so'zini malikaga eltsa, unga ming oltin berilgan. Shaydolik yuksakligi bu. Mag'rib shohi Taymusning "ra'no-yu zebo" qizi Zulayho hamda Yusufning 7 baytdan iborat dialogida tavbasiga tayangan, xatolaridan xulosa qilgan, ko'p osiyiliklar qilganini tushunib yetgan malika iqroriga guvoh bo'lamiz:

Yusuf: "Qaydadur husni jamoling?"

Zulayho: " Ketti tilab bazmi visoling".

Yusuf: "Kim ayladi xam sarvi nozing?"

Zulayho: " Ul bori hajri jongudozing".

Yusuf: "Ko'zing nedin benur bo'ldi?"

Zulayho: "Sensiz oqib qon, ko'r bo'ldi".

Yusuf va Zulayho haqidagi qissalar mazmunidan shuni xulosa qilish mumkinki, barcha badiiy va tarixiy manbalarda ushbu mashhur rivoyatni tasvirlashda mushtaraklik mavjud bo'lib, barcha manbalar ildizi "Qur'oni karim"ga bog'lanadi. Ularning hammasida umr- o'tkinchi, nafs-yov, sabr-do'st, kibr, hiyla, hasad-odamni bu dunyoda ham, boqiy olamda ham yondirguvchi olov, degan umumxulosalar mavjud. Yusuf a. s. hayoti misoldida yana shuni e'tirof etish zarur: Allohning ko'magisiz bandalari juda ojizdir, ha o'ta zaifdir! Qiylangan yuqorida manbalarda ham bu holat aniq tasdig'ini topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qur'oni karim,(Abdulaziz Mansur tarj), T., 2004. 236-249-betlar;
2. N. Rabg'uziy,"Qisasi Rabg'uziy", T.,"Yozuvchi", 1990. 99-100-betlar;
3. A. Jomiy,"Yusuf va Zulayho", T. G'. G'ulom-1974;
4. A. Navoiy,"Tarixi anbiyo va hukamo", (16-jild). T-2000; 94-99-betlar;

5. Imom Nablusiy,"Tush ta'birlari", T., 2014., 362-bet;
6. Muhammad Kamol,"Payg'ambarlar tarixi", T.,"Yangi asr avlodi", 2003;
7. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf,"Tafsiri Hilol"(3-juz), T.,"Hilol-nashr", 2019,205-206-betlar.